



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

O'zbek xalqining milliy qadriyatlarida mehr-oqibat, kattalarga hurmat, bag'rikenglik, mehmondo'stlik va jamoaviylik kabi sifatlar ustuvor hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar insonlarda empatiya, o'zaro hurmat va ijtimoiy yaqinlik hissining rivojlanishiga xizmat qiladi [8]. Madaniy determinantlar ta'lim va tarbiya jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Milliy tarbiya asosida shakllangan axloqiy me'yorlar yosh avlodning emotsional madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shu jihatdan milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi emotsional intellekt rivojining muhim sharti hisoblanadi. Emotsional intellekt insonning muvaffaqiyatli hayot kechirishi, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida kamol topishida muhim omil hisoblanadi. Uning shakllanishi va rivojlanishiga psixologik, ijtimoiy va madaniy determinantlar kompleks tarzda ta'sir ko'rsatadi [1]. Shaxsning temperament xususiyatlari, motivatsiyasi, empatiya darajasi va emotsional barqarorligi psixologik determinantlar sifatida namoyon bo'lsa, oila, ta'lim muhiti va ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy determinantlar vazifasini bajaradi. Shuningdek, milliy qadriyatlar va madaniy me'yorlar insonning emotsional xulq-atvorini shakllantirishda muhim o'rin tutadi [7].

Shu sababli ta'lim jarayonida emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, sog'lom ijtimoiy muhit yaratish va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1995.
2. Mayer J.D., Salovey P. What is Emotional Intelligence? – New York, 1997.
3. Bar-On R. The Emotional Quotient Inventory (EQ-i): Technical Manual. – Toronto, 2000.
4. Андреева И.Н. Эмоциональный интеллект как феномен современной психологии. – Новосибирск, 2008.
5. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq psixologiyasi. – Moskva, 1982.
6. Nishonova Z.T. Psixologiya asoslari. – Toshkent, 2019.
7. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2012.
8. Ғозиев Э.Ғ. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.

TA'LIM JARAYONIDA O'QUV-PEDAGOGIK HAMKORLIK VA MULOQOT

Sattorova Mahliyo Burxanovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
o'qituvchisi

Asqarova Bahora G'ulom qizi, Quدراتova Parizoda Abror qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quv-pedagogik hamkorlik va muloqotning nazariy-metodologik asoslari, ularning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni

hamda ta'lim samaradorligiga ta'siri keng yoritilgan. Shuningdek, pedagogik hamkorlikning shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishdagi roli, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch va faol muloqotning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogik hamkorlik, o'quv-pedagogik muloqot, ta'lim jarayoni, interfaol metodlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kommunikativ kompetensiya, pedagogik psixologiya, o'qituvchi va o'quvchi munosabati, ta'lim samaradorligi, ijtimoiy o'zaro ta'sir.

Mamlakatimizda ta'lim sohasiga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan, ta'lim va tarbiya tizimidan boshlanadi." Ushbu fikr zamirida chuqur ma'no mujassam bo'lib, unda ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyati yaqqol ifodalangan. Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan mazkur g'oya asosida ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy qilinmoqda, o'qituvchi maqomi va nufuzi yuksaltirilmoqda, eng muhimi, ta'lim jarayonining markaziga shaxs omili qo'yilmoqda. Bu esa o'z navbatida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishni, hamkorlikka asoslangan pedagogik muloqotni rivojlantirishni talab etmoqda.

Ta'lim jarayonida o'quv-pedagogik hamkorlik va muloqot zamonaviy pedagogika va pedagogik psixologiya ning eng muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bevosita va bilvosita o'zaro ta'sir asosida shakllanib, nafaqat bilim berish va bilim olish jarayonini, balki shaxsning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ham ta'minlaydi. Pedagogik hamkorlikning asosiy mohiyati ta'lim subyektlarining teng huquqli muloqotga kirishishi, bir-birini tushunishi va birgalikda maqsadga erishishga intilishida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik hamkorlik an'anaviy "o'qituvchi markazli" yondashuvdan "o'quvchi markazli" yondashuvga o'tish bilan bevosita bog'liqdir. Bunday yondashuvda o'quvchi faqat bilim qabul qiluvchi emas, balki faol subyekt sifatida ishtirok etadi. O'qituvchi esa bilim beruvchi shaxsdan ko'ra ko'proq yo'naltiruvchi, motivatsiya beruvchi va hamkorlikni tashkil etuvchi murabbiy vazifasini bajaradi. Bu holat ta'lim jarayonining insonparvarlashuvi va demokratlashuvini ta'minlaydi.

Pedagogik hamkorlikning markazida inson shaxsi turadi. Insonparvar pedagogika tamoyillariga ko'ra, har bir o'quvchi betakror shaxs sifatida qadrlanishi, uning fikri tinglanishi, qiziqishlari e'tiborga olinishi va individual rivojlanish trayektoriyasi qo'llab-quvvatlanishi zarur. O'qituvchi o'quvchini shunchaki baholash obyekti sifatida emas, balki hamkor, suhbatdosh va kelajak bunyodkori sifatida ko'ra olishi kerak. Ana shundagina ta'lim jarayonida haqiqiy muloqot muhiti shakllanadi. Bunday muhitda o'quvchi o'zining ichki imkoniyatlarini ochadi, mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi, muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l topishga intiladi va hayotiy kompetensiyalarni egallaydi.

Pedagogik muloqot esa o'quv-pedagogik hamkorlikning asosiy vositasi bo'lib, u orqali ta'lim jarayonidagi barcha axborot almashinuvi amalga oshiriladi. Muloqot jarayonida o'qituvchi o'z bilimlarini o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa savol berish, fikr bildirish va muhokama qilish orqali faol ishtirok etadi. Bu jarayon

o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi, ularning mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Pedagogik hamkorlikning samaradorligi ko'plab psixologik va didaktik omillarga bog'liq. Jumladan, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ishonch, hurmat va ijobiy emotsional muhit muhim ahamiyatga ega. Agar o'quvchi o'z fikrini erkin ifoda eta olsa va xatodan qo'rqmasa, u ta'lim jarayonida faolroq ishtirok etadi. Aksincha, salbiy psixologik muhit o'quvchilarning passivlashuviga va muloqotning susayishiga olib keladi.[1]

Shuningdek, pedagogik muloqotning samaradorligini oshirishda o'qituvchining nutq madaniyati, pedagogik mahorati va kommunikativ kompetensiyasi katta rol o'ynaydi. O'qituvchi fikrini aniq, mantiqiy va tushunarli tarzda ifodalashi, shuningdek, noverbal vositalardan (mimika, jest, intonatsiya) to'g'ri foydalanishi zarur. Bu esa o'quvchilarning axborotni to'g'ri qabul qilishiga va darsga bo'lgan qiziqishining oshishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, guruhli ishlash va muammoli ta'lim kabi yondashuvlar pedagogik hamkorlikni yanada kuchaytiradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning mustaqil ishlashini, jamoada faol ishtirok etishini va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Natijada ta'lim jarayoni faqat bilim olish emas, balki shaxsiy tajriba orttirish jarayoniga ham aylanadi.

O'quv-pedagogik hamkorlikda individual yondashuv ham muhim o'rin tutadi. Har bir o'quvchining psixologik xususiyatlari, bilim darajasi va qiziqishlari turlicha bo'lganligi sababli, o'qituvchi ta'lim jarayonini shunga mos ravishda tashkil etishi kerak. Differensial yondashuv orqali har bir o'quvchining imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish mumkin bo'ladi.

Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, jamoaviy ishlash va kreativ fikrlashga yo'naltirilgan yondashuvlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday metodlar o'quvchilarning faolligini oshiribgina qolmay, ularda muloqot madaniyati, ijtimoiy moslashuvchanlik, jamoada ishlash ko'nikmasi va mustaqil qaror qabul qilish malakasini ham rivojlantiradi. Shu bilan bir qatorda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, elektron ta'lim platformalari, multimedia vositalari va raqamli pedagogika imkoniyatlarini pedagogik hamkorlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida qo'llash ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida o'quv-pedagogik hamkorlik va muloqotning samarali tashkil etilishi ta'lim sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda ularning shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagogik hamkorlikni takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova R., To'rayev O. *Pedagogika*. Toshkent: O'qituvchi.
2. Davletshin M.G. *Umumiy psixologiya*. Toshkent: O'qituvchi.
3. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
4. Rogers C. *Freedom to Learn*. Columbus: Merrill.
5. Zimnyaya I.A. *Pedagogik psixologiya asoslari*. Moskva.

6. Leontyev A.N. *Faoliyat, ong va shaxs*. Moskva.
7. Rubinstein S.L. *Umumiy psixologiya asoslari*. Moskva.
8. Andreeva G.M. *Sotsial psixologiya*. Moskva.
9. Davletshin M.G., G'oziev E.G. *Psixologiya va pedagogika asoslari*. Toshkent.
10. Podlasiy I.P. *Pedagogika*. Moskva: Vados.
11. Slavin R.E. *Educational Psychology: Theory and Practice*. Pearson.
12. Bandura A. *Social Learning Theory*. Prentice-Hall.
13. Bruner J. *The Process of Education*. Harvard University Press.

O'SMIRLARDI IJTIMOIIY TARMOQLARNING PSIXOLOGIK TA'SIRI: RIVOJLANISHMI YOKI RUHIY BOSIMMI

Djumanov Sherali Zakirovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Bekmurodova Mohinur Olimjon qizi, Lapasova Dilnoza Nuriddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali "Oila
psixologiyasi" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar psixologiyasiga ta'siri ilmiy va tahliliy jihatdan yoritilgan. Bugungi kunda internet va virtual muloqot yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, uning ruhiy salomatlikka ko'rsatadigan salbiy va ijobiy ta'siri hali ham ko'plab bahs va tortishuvlarga sabab bo'lmoqda. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlarning hissiy holati, o'ziga bo'lgan ishonchi, agressiv xulqi, yolg'izlik hissi va depressiv kayfiyatiga ta'siri haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, virtual dunyoning ta'lim, muloqot va shaxs rivojlanishidagi foydali jihatlari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: psixologiya, o'smir, ijtimoiy tarmoq, depressiya, virtual muloqot, agressiya, ruhiy salomatlik, internet qaramligi.

XXI asr texnologiyalar asri sifatida inson hayotini tubdan o'zgartirdi. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning kundalik faoliyatida asosiy o'rinlardan birini egallay boshladi. Hozirgi davrda ko'plab o'smirlar kunining katta qismini telefon, internet va virtual muloqot bilan o'tkazmoqda. Bu esa psixologlar, pedagoglar hamda ota-onalar orasida jiddiy bahslarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim mutaxassislar ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning fikrlash doirasini kengaytiradi, bilim olish imkoniyatini oshiradi va muloqot madaniyatini rivojlantiradi deb hisoblaydi. Boshqa mutaxassislar esa virtual dunyo o'smirlarning ruhiy holatini izdan chiqarayotganini, ularni real hayotdan uzoqlashtirayotganini ta'kidlaydi.

Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar psixologiyasiga ta'siri bugungi kunning eng dolzarb va tortishuvli psixologik mavzularidan biri hisoblanadi.